



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 7 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуревна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Abduxamidov Islombok

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT

MUHOJIRLIGI TARIXI 10-18

Фарманова Гульнара Комилевна

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ

УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ 19-24

Индиаминова Шоира Амриддиновна

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО

СРЕДНЕВЕКОВЬЯ 25-29

Mirzakhamdamova Dildora Zafarovna

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA

IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH 30-35

Ismoilova Parvina

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN

KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) 36-41

Jomurodov Lazizbek Islomovich

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH

JARAYONI 42-46

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ

РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ 47-54

Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI

TADQIQ QILISH 55-61

Mamadaliyev Ulug'bek

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI 62-69

Jalilov Arslon Xoshimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI

BAHOLASH 70-75

Kamchibekov Farxod Olimjonovich

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS

IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI 76-82

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Djurayev Lukmon Narzullaevich

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIyatida YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING

TRANSFORMATSIYALASHUVI 83-87

<i>Norkulov Ubaydulla Umarovich</i>	
МАHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI	88-92
<i>Пулатов Шердор Нематёнович</i>	
ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ	93-105
<i>Yusupov Murodali Sunnatovich</i>	
О'ZBEKİSTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TİZİMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	106-110
<i>Suleymanov Sarvar Sunatullayevich</i>	
О'ZBEKİSTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEKNOLOGIYALARНИNG IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI	111-116
<i>Shernazarov Ravshan Avazovich</i>	
SIYOSIY E'TIQOD: UNING TİZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI	117-122
<i>Nasrullahov Ravshanxon Sirojxonovich</i>	
VATANPARVARLIKNI IJTIMOIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI.....	123-126
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Matkarimova Salomat Ko'ziyevna</i>	
ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK	127-133
<i>Tairova Maxfuza Abdusattorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI Dagi MAMLAKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI	134-139
<i>Rahimova Maftuna</i>	
LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA	140-143
<i>Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna</i>	
O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	144-147
<i>Xursanov Nurislom Iskandarovich</i>	
O'ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKALARINING PRAGMATIK TAHLILI	148-154
<i>Umarov Umidjon Akram o'g'li</i>	
RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI	155-159
<i>Облоқурова Шахло Асрор қизи</i>	
ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ	160-164
<i>Nazarova Lola Maqsadilla qizi</i>	
KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	165-170
<i>Umarxonova Dilafruz Murotjonovna</i>	
"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	171-175
<i>Yunusova Ganjina Rustamovna</i>	
NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI	176-180
<i>Мусаев Файзулло Оманович</i>	
АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ	181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB" ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i>	
FRAZEOLIGIK BIRLIKLER KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i>	
TARIXIY-BADIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI	197-201
<i>Икромова Нигина Ойбековна</i>	
ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ	202-207
<i>Najmuddinova Mehribul Najmuddin qizi</i>	
NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEHNİKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i>	
"NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIY POETIKA	214-221
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Сайдов Акрам Акмалович</i>	
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i>	
TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMoya QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	231-237
<i>Умурзақов Жасурбек Қосимжанович</i>	
КРИПТО-АКТИVLAR НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i>	
KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i>	
FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i>	
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i>	
ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	268-275
<i>Mukutov Bobur</i>	
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI VA GERMANIYA FEDERATİV RESPUBLİKASIDA TOVAR BELGİLARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i>	
INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKİSTON	

RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O’RNI 283-289

Калимбетов Ерназар

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ 290-297

Ibrohimov Azimjon Abdumomin o’g’li

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI 298-306

Ходжаева Ширин

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ 307-317

Маматкулов Камолиддин Галабаевич

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИГ АҲАМИЯТИ 318-323

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Nazarova Ra’no Sidiq qizi

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO’LGAN BOLALARDA O’Z-O’ZINI NAZORAT QILISH KO’NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI 324-329

Fayzullayeva Gulchexra Sharipboevna

UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI 330-341

Hamidova Laylo Kamildjonovna

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA ARALASH O’QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 342-346

Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO’YICHA MASHG’ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI 347-357

Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR 358-363

Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o’g’li

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGLIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA 364-369

Jalilov Umidjon Jahongirovich

OG’IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI 370-375

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi

OLIY TA’LIM TIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI 376-381

Received: 30 June 2024

Accepted: 5 July 2024

Published: 15 July 2024

Article / Original Paper

CHARACTERISTICS OF CONSIDERATION OF COMPLAINTS OF CITIZENS AND LEGAL ENTITIES BY THE CONSTITUTIONAL JUDICIAL BODY

Nurmamatova Noila Doniyorovna

Doctoral student at Tashkent State Law University,

E-mail: nurmamatovanoila@gmail.com

Abstract. There are a number of processes that should be analyzed in the process of filing complaints by citizens and legal entities to constitutional judicial bodies. In this article, the deadlines for filing a complaint with the constitutional court, representative relations in the process of proceedings, state fees that must be paid to the court, circumstances that are the basis for reconsideration of the case considered in substance, consolidation of applications, appeal to the court issues such as the form of making have been analyzed in comparative legal terms.

Key words: constitutional appeal terms, representative relations, state duties, oral hearings, consolidation of appeals.

KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nurmamatova Noila Doniyorovna

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti,

Annotatsiya. Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organlariga shikoyat bilan murojaat qilish jarayonida ish yuritish bilan bog'liq bir qancha tahlil qilinishi lozim bo'lgan jarayonlar mavjud. Mazkur maqolada konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilish muddatlari, ish yuritish jarayonida vakillik munosabatlari, sudga to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojlari, mazmunan ko'rib chiqilgan ishning qayta ko'rib chiqilishi uchun asos bo'ladigan holatlar, arizalarning birlashtirilishi, sudga shikoyat qilish shakli kabi masalalar qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy shikoyat muddatlari, vakillik munosabatlari, davlat bojlari, og'zaki eshituvlar, shikoyatlarning birlashtirilishi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N39>

Kirish. Konstitutsiyaviy shikoyatlarni ko'rib chiqish murojaat kim tomonidan berilganidan qat'iy nazar, ularni ko'rib chiqish, protsessual ish yuritish, arizachilar tomonidan bajariladigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Ish yuritish bilan bog'liq jarayonlar konstitutsiyaviy sudlov organlarida ish sharoitini yengillashtirish uchun xizmat qilsa-da, ushbu protsessual harakatlar individual shaxslarning konstitutsyaviy sudlov organi bilan aloqalarni shu darajada qiyinlashtiradi.

Metodologiya. Mazkur maqolani yozishda manbalarni tanqidiy tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy tahlil, nazariy va amaliy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Muhokama. Konstitutsiyaviy sudda shikoyatlarni ko'rib chiqishning bir qancha muhokama qilinadigan jihatlar mavjud. Shulardan biri - bu murojaat qilish bilan bog'liq muddatlar hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat qilish muddatlarining bir qancha turlari mavjud. Shikoyat qilish muddatlari huquqiy munosabatlarda aniqlik uchun xizmat qiladi va ma'lum muddat o'tgach, shikoyat predmeti tartibga solingan huquqiy hujjat o'z huquqiy ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ushbu muddat juda uzun bo'lishi kerak emas, ammo arizachining o'z individual huquqlarini shaxsan yoki himoyachi orqali himoya qilish uchun tayyorlanish uchun yetarli bo'lishi lozim (ba'zi davlatlarda individual murojaatlar uchun himoyachi yollash majburiy hisoblanadi). Venetsiya komissiyasi individual konstitutsiyaviy murojaatlarning muddatlari ularning o'zları yoki himoyachilarining aybiga bog'liq bo'limgan vaziyatlarda hamda boshqa jiddiy sabablar keltirilgan hollarda sud tomonidan uzaytirilishi zarurligini taklif etadi [1]. Misol uchun, Maltada konstitutsiyaviy sudda qayta ko'rib chiqish uchun shikoyat qilish muddati sud qarori chiqqanidan boshlab 8 kunni [2], Estoniyada 10 kunni [3], Janubiy Afrikada 15 kunni [4], Ispaniyada shikoyat predmeti bo'lgan hujjat turiga qarab 3 oy, 30 va 20 kunni [5], Avstriyada 6 haftani [6] tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy sudda ish yuritishning yana bir o'ziga xos jihatli ish yuritishda vakillik munosabatlari bilan bog'liq. Sudda arizachining o'z himoyachisi bo'lishi sud jarayonining sifatli bo'lishiga va arizachining o'z maqsadiga tez va oson erishishiga yordam beradi. Shu sababdan, ayniqsa, agar yuridik vakillik majburiy bo'lsa, moddiy yordam yoki bepul yuridik yordam olishdan bosh tortish sud jarayonlariga samarali kirishishni rad etishga teng bo'lishi mumkin. Shuning uchun, agar ularning moddiy ahvoli talab qilsa, arizachilarga konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish uchun bepul yuridik yordam ta'minlanishi kerak. Andorra, Avstriya, Ozarbayjon, Braziliya, Chexiya, Fransiya, Italiya, Luksemburg, Monako, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Ispaniya va Shveysariya (agar shaxs o'zini himoya qilishga "aniq" qodir bo'lmasa) sudda himoyachi bilan ishtirok etishi majburiy hisoblanadi. Fransiyada esa Konstitutsiyaviy Kengashga murojaat qilishda himoyachi ishtiroki majburiy hisoblanadi. Ammo, himoyachi ishtiroki sud ishining turiga bog'liq. Agar ushbu sud ishi quyi sudda ko'rinishida advokat ishtiroki majburiy bo'limgan bo'lsa, dastlabki so'rov ko'rinishida quyi sudlardan ish Konstitutsiyaviy Kengashga oshirilishi mumkin. Albaniya, Armaniston, Belgiya, Xorvatiya, Estoniya, Gruziya, Vengriya, Latviya, Lixtenshteyn, Polsha, Ruminiya, Rossiya, Sloveniya, Janubiy Afrika, Shvetsiya, Shveysariya, Makedoniya va Ukrainada yuridik vakillik majburiy emas.

E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat sudga shikoyat qilinishida to'lanishi lozim bo'lgan davlat bojlari hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaat qilishiga ruxsat berilgani bu borada suiiste'molliklar bo'lishiga, arzimagan vajlar bilan Konstitutsiyaviy sudga asossiz murojaatlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatning oldini olish maqsadida xorijiy davlatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun davlat boji belgilab qo'yilgan. Xususan, Avstriyada 240 yevro, Gruziyada 10 lari (4,5 AQSH dollari), Rossiya Federatsiyasida jismoniy shaxslar uchun 450 rubl (7,1 AQSH dollari), yuridik shaxslar uchun 6 750 rubl (107,2 AQSH dollari) miqdorida davlat boji belgilangan. Isroilda Oliy sudga ariza berish uchun taxminan 400 AQSH dollari miqdorida to'lov mavjud. Lekin ariza beruvchi maxsus quvvatlanishni (davlat tomonidan) qo'llab- so'rab so'rov yuborsa, Oliy sud tomonidan to'lovlardan voz kechish yoki kamaytirish holatlari kuzatilishi mumkin. Venetsiya komissiyasi individual shaxslarning

murojaatlarini ko'rib chiqishda asosiy e'tibor ushbu fundamental huquqlarning himoya qilinishiga qaratilishi kerakligini ta'kidlab, individual shaxslardan olinadigan davlat bojlari nisbatan kam bo'lishini va mazkur bojlarni kamaytirish masalalari shaxsning ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqib belgilanishi lozimligini hamda sudsarning asosiy vazifasi suiiste'molliklarning oldini olish ekanligini qayd etadi.

Aslida, konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi qarori yakuniy hisoblanadi va yana xuddi shu masala bo'yicha shikoyatlar qabul qilinmaydi. Shunday bo'lsa-da, ishlarni qayta ochish uchun odatiy holatlar mavjud bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

ular tomonlar bilmagan yangi faktlar paydo bo'lganda (masalan, Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi Avstriya qonuning 34-moddasida "nova reperta" dan farqli o'laroq (yangi kashf etilgan faktlar), "nova producta" - bu yerda tomonlar dalillarni faqat (birinchi instansiya) sud jarayoni yopilgandan keyin ham ilgari suradilar. Agar sud ushbu fikrlardan xabardor bo'lishsa - odatda istisno qilinadi);

konstitutsiyaviy sud tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish maqsadida;

agar konstitutsiya o'zgartirilgan bo'lsa yoki Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi muayyan holatni ushbu sud qarorining buzilishi sifatida qabul qilgan sharoitlar ma'lum bo'lsa, bu holat ham Konstitutsiyaning buzilishini nazarda tutadi.

Konstitutsiyaviy sudga shikoyat qilish yozma tarzda bo'lishi lozim va ba'zi davlatlarda ariza yuzasidan qat'iy talablar ishlab chiqilgan. Jumladan, AQSH Oliy Sudi qo'ygan talablarga ko'ra, arizaning uzunligi va taqdim etilgan hujjatlar muqovasining rangi yuzasidan ham talablar mavjud. Mazkur talablardan ko'zlangan maqsad shaffoflik va aniqlikni ta'minlash sanaladi. Ushbu qoidalar shaffoflik va kuzatuvchanlik maqsadlarini ko'zlaydi. Biroq, ariza beruvchiga hujjatni muayyan vaqt chegarasi va faqat muayyan sharoitlarda ichida tuzatish yoki to'ldirish imkoniyati berilishi kerak. Bu ayniqsa, rasmiy talablar juda qattiq bo'lganda va yuridik vakillik majburiy bo'lmanган hollarda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu imkoniyat shikoyat va uning buzilish asosi mavjud bo'lsa-da, rasmiy talablarga javob bermaganligi tufayli rad etilishining oldini oladi.

Bir xil mazmundagi arizalar bir ishga birlashtirilishi mumkin. Masalan, Armaniston, Avstriya, Belgiya, Chexiya, Litva, Portugaliya, Rossiya, Slovakiya, Sloveniya, Janubiy Afrika, Makedoniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida bir xil predmetga doir arizalar bitta jarayonda ko'rib chiqilishi mumkin yoki ko'rib chiqilishi kerak. Isroilda bir xil savol bilan bog'liq bir nechta petitsiya bittada topshirilishi mumkin, ariza beruvchilar shunga o'xhash da'volar yuzasidan suddan o'z arizalariga boshqa murojaat bilan qo'shilishlarini so'rashlari mumkin. Belgiya, Fransiya, Gretsya va Ispaniyada bir turdag'i ish bo'yicha qonuniy manfaatdor bo'lgan har qanday shaxs protsessga qo'shilishi mumkin. Protsessual iqtisodiy sabablarga ko'ra, qonuniy manfaatdor shaxslar ko'rileyotgan ishga aralashish huquqiga ega bo'lishi mumkin.

Turli mamlakatlarning Konstitutsiyaviy sudlar to'g'risidagi qonunlarida (jumladan, Armaniston, Ozarbayjon, Chexiya Respublikasi, Gruziya, Rossiya va San-Marino) ko'rileyotgan shikoyatga qarama-qarshi tomonning arizasi ham qo'shib ko'riliishi ta'minlanadi. Fuqarolik va jinoiy protsessdagi pozitsiyadan farqli o'laroq, ushbu jarayonning ishtirokchilari kim ekanligi har doim ham aniq emas. Ba'zan, ariza beruvchi hujjatning konstitutsiyaviliga e'tiroz bildiradi. Umumiy akt protsessning predmetini tashkil etsa, aktni ishlab chiqqan organ javobgar sifatida jalb etilishi mumkin. Individual akt predmetni tashkil etgan hollarda esa

protsessda aktning asl muallifi javobgar bo'lishi mumkin. Konstitutsiyaviy ish yuritishda qarama-qarshilik tizimidan foydalanishning afzalligi shundaki, sud turli nuqtayi nazarlarni hisobga olishi va qarama-qarshi dalillarni ko'rib chiqishi mumkin va bundan tashqari, dastlabki nizo tomonlari, shuningdek manfaatdor guruuhlar vakillari, ekspertlar va ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillariga o'z fikrlarini bildirish imkoniyati beriladi. Konstitutsiyaviy sud esa dalillar va ularni tekshirish orqali qaror qabul qilishi kerak [7]. Qarama-qarshi tomon murojaatlari og'zaki eshitilmaydi, odatda taraflar o'z murojaatlarini yozma tarzda bayon etishadi.

Sud jarayonida ommaviylikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri og'zaki eshituvlar hisoblanadi. Og'zaki eshituvlar ayniqsa, individual shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda muhim hisoblanadi. Inson huquqlari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 6-moddasiga ko'ra, har kim o'z fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash yoki jinoiy ayblovga qarshi himoyalanish maqsadida qonuniy asosda tuzilgan sud va jamoyatchilik muhokamasidan foydalanish huquqiga ega. Qaror ommaviy tarzda e'lon qilinadi, faqat milliy xavfsizlik va shaxsiy daxlsizlik bilan bog'liq munosabatlarda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalariga cheklov qo'yilishi mumkin [8]. Sudda tomonlarning o'z fikr-mulohazalarini og'zaki eshitilishining afzalligi tomonlar qarashlarining qarama-qarshiligi hamda yozma tarzda o'z mulohazalarini bildirishda duch kelinadigan rasmiy qoidalardan holilik hisoblanadi. Salbiy tomoni esa barcha tomonlar og'zaki tinglanishi ortiqcha vaqt sarf qilinishiga olib keladi.

Ushbu tadqiqot natijalari sud jarayonining holatiga ko'ra uchta modeli borligini ko'rsatmoqda:

- 1) sud jarayoni butunlay og'zaki;
- 2) butunlay qog'ozga asoslangan, ya'ni yozma;
- 3) qisman og'zaki va qisman yozma.

Albaniya, Avstriya, Ozarbayjon, Chexiya, Isroil, Italiya, Germaniya, Lixtenshteyn, Niderlandiya, Sloveniya, Ukraina, Makedoniya va Qo'shma Shtatlarda sud jarayoni agar boshqacha qaror bo'lmasa, og'zaki tarzda yoki ish holatidan kelib chiqib og'zaki va yozma protseduralar bo'lishi mumkin. Janubiy Afrikada Konstitutsiyaviy sud arizani faqat yozma taqdimnomalar asosida hal qiladi va og'zaki argumentlar zarur bo'lsa, bu yuzasidan ko'rsatmalar beriladi. Amalda, konstitutsiyaviy sudlar ko'pincha og'zaki sud jarayonidan voz kechishadi (masalan, Germaniya [9] va Sloveniya). Vengriya va Portugaliyada faqat yozma ish yuritiladi (Portugaliyada faqat fashistik g'oyalar bilan bog'liq ishlarda og'zaki eshituvlar amalga oshiriladi). Shveysariyada ishni ko'rib chiqish odatda tomonlarning yozma dalillariga asoslanadi, og'zaki sud muhokamasi bundan mustasno hisoblanadi.

E'tiroz bildirilgan, normativ yoki individual aktni amalga oshirishni to'xtatib turish shaxsni tuzatib bo'lmaydigan zararning oldini olish maqsadida Konstitutsiyaviy sud bunday huquqni qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishi orqali amalga oshirilishi mumkin (masalan, Avstriya, Albaniya, Armaniston, Belgiya, Bosniya-Gersegovina, Xorvatiya, Estoniya, Fransiya, Gruziya, Germaniya, Isroil, Lixtenshteyn, Polsha, Serbiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shveysariya, Makedoniya, Turkiya va AQSH). Biroq, ba'zi davlatlar huquqiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan, to'xtatib turish harakatini amalga oshirishga ruxsat bermaydilar (masalan, Jazoir, Andorra, Ozarbayjon, Belarusiya, Bolgariya, Kipr, Chexiya Respublikasi, Fransiya, Vengriya, Latviya, Luksemburg, Moldova, Chernogoriya, Portugaliya, Ruminiya, Rossiya, Shvetsiya va Ukraina). Rossiyada, aksincha, Konstitutsiyaviy sud tegishli organlarga e'tiroz bildirilgan

aktning bajarilishini to'xtatib turishni taklif qilishi mumkin. Markazlashmagan konstitutsiyaviy nazoratga ega bo'lgan davlatlarda qonunni amalga oshirishni to'xtatib turish odatiy holdir (masalan, Daniya). Janubiy Afrikada konstitutsiyaviy masalani hal qilishda sud har qanday qarorni qabul qilishi mumkin.

Normativ murojaatni ko'rib chiqishda ariza qaytarib olingan taqdirda konstitutsiyaviy sud ish yuritishni to'xtatishi majburiy emas. Ariza qaytarib olingandan keyin sud agar bu jamoat manfaatlariga mos keladigan bo'lsa, ishni tekshirishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu agar ariza beruvchi endi protsessda ishtirok etmasa ham konstitutsiyaviy sudlarning muxtoriyatini va ularning konstitutsiya himoyachisi vazifasini ifodalashni maqsad qiladi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shikoyat qilingan huquqiy hujjat o'z kuchini yo'qtganda ko'zga tashlanadi. Ba'zi davlatlarda hujjat o'z kuchini yo'qtgan zahotiyoga sudda mazkur hujjat bilan bog'liq arizaning ko'riliishi to'xtatiladi (masalan, Andorra, Avstriya, Chexiya [10], Belarusiya, Fransiya, Chernogoriya, Portugaliya, Slovakiya, Shveysariya, Makedoniya, Ukraina). Boshqa davlatlarda esa sud o'z nazoratini davom ettiradi va konstitutsiyaga zid harakatni e'lon qiladi. Bunday nazorat butunlay sudning ixtiyorida bo'lishi mumkin (masalan, Lixtenshteyn, Serbiya) yoki u faqat ma'lum holatlar bilan cheklanishi mumkin (masalan, Polsha va Rossiya, bu yerda Agar inson huquqlari buzilishining oldini olish uchun zarur bo'lsa, davomiy ko'rib chiqishga ruxsat berilishi nazarda tutilyapti).

Xulosa. Yuqoridagilarni inobatga olib, xulosa o'rnida aytish mumkinki, konstitutsiyaviy sudlov organlari tomonidan ish yuritishda quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, sudga murojaat qilinishi bilan bog'liq muddat masalasi bo'lib, murojaat qilish muddatlari konstitutsiyaviy sudlov organlarida ish hajmining oshib ketishiga yo'l qo'yadigan darajada uzoq bo'lmasligi hamda individual shaxslarning yoki ularning vakillarining shikoyatni shakllantirishi va hujjatlarni yig'ishi uchun yetarli bo'lishi lozim. Ikkinchidan, murojaat uchun davlat bojlari asossiz shikoyatlarning oldini olish maqsadida mavjud bo'lishi, ammo bu borada arizachining ijtimoiy ahvoli ham inobatga olinishi kerak. Uchinchidan, konstitutsiyaviy sudlov organining qarori yakunlovchi bo'lishi va faqatgina qonun bilan belgilangan hollardagina qarorni qaytadan ko'rib chiqish mumkin. To'rtinchidan, barcha tomonlarning fikrlarini eshitish uchun konstitutsiyaviy sud qarshi da'volar ham qabul qila olishi kerak. Demak, sud tomonidan yuqoridagi vazifalar to'liq bajarilishi zarur va bu sudda ish yuritishning sifatli bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Harutyunyan, G., Nussberger, A., & Paczolay, P. (2009). Study on Individual Access To Constitutional Justice. Venice Commission [European Commission for Democracy Through Law], 538, 32.
2. Legal Notice 35 of 1993 entitled Regulations Regarding Practices and Procedures of the Court, Article 4.
3. Constitutional Review Court Procedure Act of Estonia, 13.03.2002.
4. Rules of the Constitutional Court of South Africa, October 31st, 2003.
5. Organic Law on the Constitutional Court of Spain, Articles 42 to 44, 03.10.1979.
6. Federal Law on the Constitutional Court of Austria, Article 82.
7. CDL-AD (2001)005 , Opinion on the Draft Law on the Constitutional Court of Azerbaijan.

8. Council of Europe, European Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, as amended by Protocols Nos. 11 and 14, 4 November 1950, ETS 5, available at: <https://www.refworld.org/docid/3ae6b3b04.html> [accessed 28 March 2022]
9. R. Jaeger, S. Broß, "Die Beziehungen zwischen den Verfassungsgerichtshöfen und den übrigen einzelstaatlichen Rechtsprechungsorganen, einschließlich der diesbezüglichen Interferenz des Handelns der europäischen Rechtsprechungsorgane", report for the XIIth Conference of European Constitutional Courts, p.22.
10. Article 67, Constitutional Court Act of Szech.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).